Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 39
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVET DAVRI SHARQSHUNOSLIGIDA RISHTON KULOLCHILIGI TARIXSHUNOSLIGI

Muslima Ma'murovna Yuldasheva*
Farg'ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi tayanch doktoranti
✉ m.yuldasheva1187@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asrning oxiri – XX asr davomida Farg'ona vodiysining eng yirik hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lgan Rishton kulolchiligi tarixining o'rganilish jarayoni va tadqiq etilish darajasi tahlil qilinadi. Muallif Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati davrida faoliyat yuritgan rus sayohatchilari, etnograf va san'atshunos olimlarining ilmiy asarlarini O'zbekiston tarixi tarixshunosligi kontekstida tadqiq etgan. Shuningdek, maqolada mustamlaka va sovet davri tadqiqotlarining metodologik yondashuvlari, ularning yutuqlari va mafkuraviy cheklangan jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar

Rishton, kulolchilik markazi, Rossiya imperiyasi, sovet davri, tarixshunoslik, etnografiya, sharqshunoslik, Farg'ona vodiysi, an'anaviy hunarmandchilik.

DOI: 10.5281/zenodo.21743493

KIRISH

Farg'ona vodiysining an'anaviy hunarmandchilik markazlari orasida Rishton kulolchilik markazi o'zining ko'p asrlik boy tarixi, o'ziga xos badiiy uslubi va mashhur ishqorli sir texnologiyasi bilan alohida o'rin tutadi. XIX asrning oxiri – XX asr davomida ushbu markaz nafaqat mahalliy amaliy san'at o'chog'i, balki ko'plab xorijiy va rossiyalik tadqiqotchilar, etnograf hamda san'atshunoslarning e'tiborini tortgan muhim ob'ektga aylandi.

Ushbu davrda amalga oshirilgan ilmiy kuzatuvlar va to'plangan materiallar Rishton kulolchiligi tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, Rossiya imperiyasi va sovet davri ilmiy adabiyotlarida Rishton kulolchiligining o'rganilish jarayoni hamda tadqiq etilish darajasini tahlil qilish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi – XIX asr oxiri – XX asrda Rishton kulolchilik markazi tarixiga oid ilmiy adabiyotlar hamda manbalarning o'rganilish bosqichlarini va tadqiq etilish darajasini yoritib berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tarixiy-qiyosiy tahlil, xronologik izchillik, obyektivlik hamda manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili usullari tashkil etadi. XIX asr oxiri va XX asr davomida chop etilgan ikki asosiy guruhdagi yozma manbalar tahlilga tortildi:

- Etnografik va sharqshunoslik monografiyalari, jumladan M.S. Andreyev, M. Gavrilov, Ye.M. Peshchereva hamda V.K. Rozvadovskiyning fundamental ishlari [2; 4; 7; 9];
- San'atshunoslik va maxsus davriy tadqiqotlar, xususan N.F. Burdukov, G. Derviz va hammualliflar hamda M.K. Rahimov [3; 5; 8].

Adabiyotlar tahlilida formal-badiiy, tipologik va ijtimoiy-iqtisodiy tahlil metodlaridan foydalanilib, manbalardagi faktik ma’lumotlar Rishton kulolchilik markazining tarixiy evolyutsiyasini yoritish nuqtai nazaridan tizimlashtirildi va qayta ko‘rib chiqildi.

MUHOKAMA

Etnografik manbalar kulolchilik buyumlarini faqat badiiy-estetik obyekt sifatida emas, balki madaniy-ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. Xususan, ular yordamida kulolchilik buyumlarining funksional vazifasi (maishiy, marosimiy, xo‘jalik, sovg‘a), shakl va bezaklarning ramziy-semantik ma’nosi, rang tanlovi va naqsh tizimining mahalliy an’ana va tafakkur bilan bog‘liqligi ilmiy asosda izohlanadi. Etnografik manbalar kulolchilikning ijtimoiy uzluksizligini yoritishda ham muhimdir. Ustoz-shogird tizimi, hunarmand oilalarining ichki ierarxiyasi, kasb sirlarining avloddan avlodga o‘tishi aynan etnografik kuzatuvlar orqali aniqlanadi. Bu holat kulolchilikni jonli madaniy jarayon sifatida o‘rganishga imkon yaratadi. Kulolchilik tadqiqotida bunday manbalar qatoriga etnograf olimlarning dala kuzatuvlari, ekspeditsiya kundaliklari, ustoz-shogird an’analari haqidagi yozma va og‘zaki ma’lumotlar, xalq hunarmandchiligi tavsiflangan ilmiy tadqiqotlar va boshqalarni kiritish mumkin.

XIX asrda rus olimlarining Markaziy Osiyo tarixi, etnografiyasiga qiziqishlari ortdi. Shu maqsadda ko‘plab olim va tadqiqotchilar mintaqaga, xususan, Farg‘ona vodiysiga tashrif buyurib, ko‘plab ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Mazkur tadqiqotlar hunarmandchilik sohasida olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlarda muhim manba va adabiyotlar bo‘lib xizmat qiladi. Markaziy Osiyo kulolchilik an’analarini o‘rganishning birinchi bosqichi XIX asrda boshlangan bo‘lsa-da, Rishton kulolchiligi etnografik jihatdan deyarli yoritilmay kelindi. Bunga sabab, sobiq sovet mustabid tuzumi davrida hunarmandchilikning qadimiy an’analari, urf-odatlari eskilik sarqiti sifatida qoralandi. O‘zbekiston kulolchilik sohasini o‘rganishning ikkinchi bosqichi XX asrning 20-30-yillarida boshlandi va u, asosan, muzey eksponatlari uchun artefaktlar to‘plash hamda ularni targ‘ibot-tashviqot qilish ishlariga bag‘ishlandi [1, b. 4].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida olib borilgan bunday etnografik tadqiqotlar mintaqa xalqlarining turmushi, urf-odatlari va xo‘jalik faoliyatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlabki tadqiqotchilardan biri rassom va etnograf V.K. Rozvadovskiy bo‘lib, u Markaziy Osiyoda yashovchi bir qator xalqlarning ijtimoiy hayoti va madaniyatini ilmiy kuzatishlar asosida yoritib berdi. Hunarmandchilik sohasidagi tarixiy, etnografik hamda san’atshunoslik tadqiqotlarida manba sifatida muhim ahamiyat kasb etgan “Turkiston o‘lkasida kulolchilik va boshqa ayrim hunarmandchilik turlarini o‘rganish tajribasi” (“Опыт исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае”) kitobida Markaziy Osiyo xalqlarining kundalik hayoti, dehqonchilik, hunarmandchilik kabi an’anaviy kasb-korlari hamda o‘ziga xos marosimlari haqida ma’lumot berilgan [9].

Rozvadovskiy Turkiston hududlarini sayohat qilib, har bir hunarmandchilik turini sinchkovlik bilan tadqiq etdi. Xususan, kulolchilik sohasiga alohida e’tibor qaratib, XX asr boshlarida kulolchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan Buxoro, Samarqand, Xo‘jand, O‘ra-Tepa, Toshkent shaharlari va Rishtondan to‘plagan ma’lumotlari hududlardagi kulolchilik sohasi haqida batafsil ma’lumot beradi. Shuningdek, mazkur hududlar kulolchiligining umumiy jihatlari hamda bir-biridan farq qiluvchi o‘ziga xos jihatlari yoritib beriladi. Tadqiq etilayotgan manbaning muhim jihati shundaki, unda Rishton kulollarining yillik ishlab chiqarish hajmi, xarajatlari va daromadlari aniq statistik ko‘rsatkichlar hamda yerga egalik qilish huquqi asosida tizimli tahlil qilingan.

Rozvadovskiy Rishton kulolchilik markaziga yuqori e’tibor qaratib, boshqa kulolchilik markazlaridan farqli ravishda mazkur joy o‘zi uchun qiziq va ahamiyatli hudud bo‘lganligini ta’kidlab o‘tgan [9, c. 44]. Tadqiqotda keltirilgan ma’lumotlarning qimmatli jihati shundaki, unda kulolchilik ishlab chiqarish jarayonlari va texnologiyasi boshlanishidan yakunigacha batafsil tavsiflab berilgan. Shuningdek, muallif o‘z tadqiqotida mahalliy aholi tomonidan odatda e’tibor berilmaydigan jihatlarga ham alohida to‘xtalib, kulolchilik ustaxonalarining qurilishi, ichki tuzilishi, dizayni hamda ularda foydalaniladigan jihozlar va asbob-uskunalarni batafsil tasvirlab bergan. Shuningdek, Rishton kulolchilik ustaxonalarining tuzilishi va jihozlanishi Markaziy Osiyoning boshqa kulolchilik markazlariga nisbatan ancha sifatli ekani ta’kidlangan.

Bundan tashqari, tadqiqotda sopol buyumlar ishlab chiqarishda foydalaniladigan xomashyo turlari va

ularning zaxiralari haqida ham muhim ma’lumotlar berilgan. Shu bilan birga, tadqiqotchi mahalliy kulolchilik ishlab chiqarishidagi yutuqlar bilan bir qatorda mavjud kamchiliklarni ham aniqlab, ularni bartaraf etish bo‘yicha muayyan taklif va tavsiyalarni ilgari suradi. Kulolchilik jihozlari Xo‘jand va boshqa kulolchilik markazlarida qo‘llaniladigan asbob-uskunalar bilan deyarli bir xil ekani qayd etilib, texnologik jihatdan sezilarli rivojlanish kuzatilmagani, ishlab chiqarish jihozlarini asosan qadimiy usullar asosida davom etayotgani ta’kidlangan [9, c. 45].

1925-yilda M.S. Andreyev rahbarligida etnograf Ye.M. Pesherova, fotograf Virvinskiylar ishtirokida Markaziy Osiyo kulolchiligi bo‘yicha ma’lumot yig‘ish uchun ekspeditsiya uyushtirildi. Ekspeditsiyaning asosiy e’tibori mahalliy kulolchilik namunalarini yig‘ishga qaratilib, har bir hudud kulolchilik an’analarini alohida-alohida tadqiq qildilar. Tadqiqotda XIX asr oxiri – XX asr birinchi yarmida kulolchilik sohasida faoliyat olib borgan rishtonlik usta-kulollar hamda ularning faoliyati haqida muhim ma’lumotlar berilgan [2, c. 4-7].

1921–1961-yillardagi ekspeditsiyalarning asosiy maqsadi kulolchilik tarixi, rivojlanish davrlari, ijtimoiy holatga ta’siri kabi masalalarni o‘rganish bo‘ldi. Ushbu harakatlar natijasi sifatida masalaga oid “O‘rta Osiyo kulolchilik sanoati” (“Гончарное производство Средней Азии”) nomli fundamental asar yaratildi. Mazkur asar Markaziy Osiyo kulolchiligi tadqiqoti bo‘yicha keyingi davrda olib borilayotgan tadqiqotlar uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Kitob ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qism Markaziy Osiyo hududlaridagi ayollar kulolchiligiga bag‘ishlangan. Ikkinchi qismida esa Qoratog‘, Panjikent, Samarqand, Toshkent, G‘ijduvon va Rishton kulolchiligining ishlab chiqarish texnikasi, buyumlarning tuzilish va shakllari, iqtisodiy maqsadlari, tarixi hamda kulolchilikdagi an’ana, urf-odat va marosimlar haqida ma’lumot berilgan [7]. Asarning qimmati shundaki, muallif tomonidan barcha jarayonlar batafsil tahlil qilingan. Yuqorida ta’kidlanganidek, asar etnografik yondashuv asosida yaratilgan bo‘lsa-da, Rishton kulolchilik markazi tarixiga oid muhim ma’lumotlarni ham taqdim etadi.

Markaziy Osiyo an’anaviy hunarmandchilik tarixini, xususan, uning ma’naviy-ramziy asoslarini tadqiq etishda sohaga oid maxsus risolalar muhim manbaaviy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ayrim hunar turlariga oid risolalarning asl qo‘lyozma nusxalari saqlanib qolmagan bo‘lsada, ularning mazmuni va tarkibiy tuzilishini tarixshunoslikka oid ikkilamchi manbalar hamda dastlabki ilmiy kuzatishlar orqali tiklash va o‘rganish imkoniyati mavjud [4]. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida hunarmandchilik korporatsiyalari tizimida risolalarga bo‘lgan ijtimoiy-madaniy munosabat, ularni ilmiy jihatdan o‘rganish masalalari hamda yo‘qolib borayotgan risolalarni to‘plash jarayonlari atroflicha tahlil etilgan. Shuningdek, davr taqozosi va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar natijasida mahalliy aholi orasida risolalarning an’anaviy maqomiga bo‘lgan ishonchning susayishi hamda ularga amal qilish tizimining yo‘qolib borish sabablari tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan.

Kulolchilik san’ati xalq amaliy bezak san’atining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, uni o‘rganishda san’atshunoslik manbalari nazariy va daliliy poydevor vazifasini bajaradi. Ushbu manbalar kulolchilik buyumlarini faqat xo‘jalik ehtiyoji mahsuli sifatida emas, balki badiiy tafakkur, estetik qarashlar va madaniy tajribaning ifodasi sifatida tahlil qilish imkonini beradi. San’atshunoslik adabiyotlarida kulolchilik, asosan, formal-badiiy tahlil asosida o‘rganiladi. Bunda buyum shaklining mutanosibligi, hajm va fazo munosabati, bezak va sirt o‘rtasidagi uyg‘unlik muhim mezon sifatida qaraladi. Shu bilan birga, naqshlarning kompozitsion tuzilishi va ranglar tizimi kulolchilik buyumining estetik qiymatini belgilovchi omil sifatida talqin etiladi [6].

San’atshunoslikka oid manbalarni ikki guruhga bo‘lib tadqiq etish mumkin:

Nazariy-ilmiy manbalar – san’at tarixiga oid adabiyotlar, monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar. San’at tarixiga oid manbalarda amaliy bezak san’atining kelib chiqish tarixi hamda rivojlanish bosqichlari, texnik taraqqiyoti haqida ma’lumot berilgan. Ilmiy tadqiqotlar va monografiyalarda esa kulolchilik markazlari uslubiy xususiyatlari asosida tasniflanadi. Muayyan hududga xos shakl, ornament va rang tanlovi o‘sha markazning badiiy qiyofasini belgilab beradi. Bu yondashuv kulolchilik an’analarining tarixiy davomiyligi va ichki qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Tarixiy-amaliy manbalar – muzeylardagi artefaktlar, kulolchilik festival va ko‘rgazmalarida namoyish etilgan buyumlar, kataloglar hamda kitob-albomlar. Bu turdagi manbalarda tadqiq etilayotgan buyumni ehtiyoj uchun kerakli ashyo sifatida emas, balki san’at namunasi sifatida tadqiq etib, o‘rganilayotgan hududning estetik

qarashlari, madaniyati, tabiat olami va dunyoqarashi haqida tasavvur hosil qilish imkoni mavjud.

Yuqorida ta'kidlanganidek, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan Rossiya imperiyasi mustamlaka hududlarida mahalliy xalq amaliy san'ati, jumladan hunarmandchilikning turli sohalarini tadqiq etishga kirishdi. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad nodir amaliy san'at asarlarini topish, to'plash va metropoliya muzeylarini Sharq artefaktlari bilan boyitish edi. Ekspeditsiya natijasida tadqiqot kitob-albom shaklida nashr qilindi [3, c. XI]. Mazkur manba Markaziy Osiyo kulolchilik ishlab chiqaruvchi asosiy hududlar Samarqand, Buxoro, Kattaqo'rg'on, Xo'jand, Toshkent va Rishton kulolchilik buyumlarining o'ziga xos jihatlari, bezak turlari, naqshlarning bir-biridan farqi hamda ularning umumiy xususiyatlari haqida ma'lumot beradi. Kitob-albomda Rishton Samarqand va Buxoro kabi kulolchilikning yirik markazlaridan biri sifatida qayd etilgan.

Markaziy Osiyo kulolchiligi tadqiq etilgan yetakchi adabiyotlardan biri M.K. Rahimovning "O'zbekiston badiiy kulolchiligi" ("Художественная керамика Узбекистана") kitobidir [8, c. 19-25]. Muallif asarida Rishton kulolchiligiga ham alohida urg'u bergan. Jumladan, Rishton kulolchilik buyumlarining turlari va shakllari, naqsh turlari, bezash usullari, kulolchilik tarixi xususida ma'lumotlar uchraydi. Uning ta'kidlashicha, Rishtonda ko'plab tajribali kulollarning mavjudligi hamda mustahkam texnik va xomashyo bazasining shakllanganligi bu hududda badiiy keramika ishlab chiqarishini yanada muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Rishtonlik ustalar an'anaviy kulolchilik buyumlarini tayyorlash bilan bir qatorda, O'zbekistonning boshqa kulolchilik markazlarida faoliyat yuritayotgan yetuk ustalar va rassomlarning ilg'or tajribalaridan ham muntazam ravishda foydalanadilar [8, c. 25]. Shuningdek, Rishton ustalarining bezaklarida yuzlab naqshlar mavjudligi aytilgan. Mazkur asar Rishton kulolchiligining sovet davridagi ahvoli va tarixini o'rganishda muhim adabiyot sifatida xizmat qiladi.

Sohaga oid fundamental ma'lumotlar, tadqiqot masalasining o'ziga xosligidan kelib chiqib, aksar hollarda yirik inklyuziv kitob-albomlar shaklida chop etilgan [5]. Xususan, ushbu nashrlarda O'zbekiston, Tojikiston va Turkmanistondagi kulolchilik san'atining tarixiy markazlari yoritilib, Markaziy Osiyo xalq kulolchiligining sovet davridagi umumiy holati, usta-mualliflar ijodi hamda buyum namunalari tahlil qilingan [5, c. 125-128]. Mazkur asarning tadqiqot uchun ahamiyatli jihati shundaki, unda asosiy e'tibor sof texnologik va ishlab chiqarish jarayonlariga emas, balki buyumlarning estetik qiyofasiga (shakl, kompozitsion yechim, ranglar mutanosibligi va sir ishlash mahoratiga) qaratiladi. Natijada, kulolchilik amaliy san'atning ajralmas qismi sifatida baholanib, undagi mintaqaviy markazlar o'ziga xos alohida badiiy-uslubiy fenomen sifatida ilmiy muomalaga olib kiriladi.

XULOSA

Rishton kulolchiligini o'rganishga bag'ishlangan manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu hunarmandchilik markazi Markaziy Osiyo, xususan, Farg'ona vodiysi madaniy merosining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Arxeologik, etnografik, tarixiy va san'atshunoslik yo'nalishidagi hamda og'zaki manbalar Rishton kulolchiligini qadimgi davrlardan boshlab uzluksiz rivojlangan an'ana sifatida baholashga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xudaybergenov, H. (2023). Xorazm kulolchiligi (Etnologik tadqiqot). Toshkent: Lesson-press, 4-b.
2. Андреев, М. С. (1925). К материалу по Средне-Азиатской керамике. Ташкент, с. 4–7.
3. Бурдуков, Н. Ф. (1904). Гончарные изделия Средней Азии. Санкт-Петербург, с. XI.
4. Гаврилов, М. (1912). Рисоля сартовских ремесленников: исследование преданий мусульманских цехов. Ташкент, 59 с.
5. Дервиз, Г., Жадова, Л., Жданко, И., & Митлянский, Д. (1974). Современная керамика народных мастеров Средней Азии. Москва: Советский художник, 232 с.
6. Ильясова, С. Р., Ильясов, Дж. Я., Имамбердиев, Р. А., & Исхакова, Э. А. (2016). «Нет блага в богатстве…». Глазурованная керамика Ташкентского оазиса IX–XII вв. Москва: Фонд Марджани, 595 с.
7. Пещерева, Е. М. (1959). Гончарное производство Средней Азии. Москва: Издательство АН СССР, 395 с.

8. Рахимов, М. К. (1961). Художественная керамика Узбекистана. Ташкент: Издательство АН УзССР, с. 19–25.
9. Розвадовский, В. К. (1916). Опыт исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае. Ташкент, 61 с.